



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

**CONTENT AND STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING
GENERAL CULTURAL COMPETENCE IN FUTURE PRESCHOOL
TEACHER-EDUCATORS**

Olimova Dilrabo Nurali qizi

Lecturer, Department of Preschool Education, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract

This article examines the content and structural characteristics of developing general cultural competence in future preschool teacher-educators. The essence of general cultural competence, its structural components, development criteria, and significance in the pedagogical education process are analyzed. Particular attention is paid to the role of national and universal values, communicative culture, information culture, and creative activity in the professional training of future teachers. The findings indicate that the development of general cultural competence is an important factor in enhancing professional competence and improving the effectiveness of the educational process.

Keywords

general cultural competence, future teacher-educator, competency-based approach, professional training, cultural values, communicative culture, information culture, pedagogical activity, competence, educational process.

**BO'LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLARDA UMUMMADANIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNIIY VA
TUZILMAVIY TAVSIFI**

NamDPI. Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Olimova Dilrabo Nurali qizi

olimovadilraboifora@gmail.com +998977050615





**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuniy va tuzilmaviy tavsifi yoritilgan. Umummadaniy kompetentlikning mohiyati, tarkibiy komponentlari, rivojlanish mezonlari hamda pedagogik ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, kommunikativ madaniyat, axborot madaniyati hamda ijodiy faoliyatning o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning muhim omili ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: umummadaniy kompetentlik, bo'lajak tarbiyachi-pedagog, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, madaniy qadriyatlar, kommunikativ madaniyat, axborot madaniyati, pedagogik faoliyat, kompetensiya, ta'lim jarayoni.

Аннотация. В данной статье раскрываются содержательная и структурная характеристики развития общекультурной компетентности будущих воспитателей-педагогов. Проанализированы сущность общекультурной компетентности, её структурные компоненты, критерии развития и значение в процессе педагогического образования. Особое внимание уделено роли национальных и общечеловеческих ценностей, коммуникативной культуры, информационной культуры и творческой деятельности в профессиональной подготовке будущих педагогов. Результаты исследования показывают, что развитие общекультурной компетентности является важным фактором повышения профессиональной компетентности педагога и эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: общекультурная компетентность, будущий воспитатель-педагог, компетентностный подход, профессиональная подготовка, культурные



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

ценности, коммуникативная культура, информационная культура, педагогическая деятельность, компетенция, образовательный процесс.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning mazmunini aniqlashda mazkur kompetentlikning mohiyati, tarkibiy qismlari va pedagogik funksiyalarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, umummadaniy kompetentlik shaxsning madaniyatga oid bilimlarni egallashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi hamda madaniy tajribani ijtimoiy va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuniy tavsifini aniqlash mazkur kompetentlikning tarkibi, vazifalari va pedagogik ahamiyatini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Chunki umummadaniy kompetentlik zamonaviy pedagog shaxsining nafaqat umumiy madaniy saviyasini, balki uning kasbiy faoliyatni ma'naviy-axloqiy va qadriyatli asoslarda tashkil etishga tayyorligini ham ifodalaydi. Shu bois ushbu kompetentlik pedagogning kasbiy kompetentligi tizimida integrallashuvchi va yo'naltiruvchi funksiyani bajaradi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikning mazmuni madaniyatga oid bilimlarni egallash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash va qadrlash, madaniy merosni asrab-avaylashga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish hamda madaniy qadriyatlarni kasbiy-pedagogik faoliyatda namoyon etishga tayyorlik kabi jihatlarni qamrab oladi. Mazkur mazmuniy tavsif umummadaniy kompetentlikning ichki tuzilmasini aniqlash va uning tarkibiy komponentlarini belgilash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ummadaniy kompetentlikning mohiyati va mazmuniga oid ilmiy qarashlar tahlili mazkur fenomenning ko'p komponentli va integrativ xarakterga ega ekanligini



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

ko'rsatdi. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarda uning bilimga oid, qadriyatli, kommunikativ va faoliyatli jihatlari turli darajada yoritilgan bo'lsa-da, ularning barchasida shaxsning madaniy tajribani o'zlashtirishi, qadriyatlarni anglab qabul qilishi hamda ularni amaliy faoliyatda namoyon etishi umumiy metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari esa umummadaniy kompetentlikni faqat madaniyatga oid bilimlar tizimi sifatida emas, balki pedagogik faoliyatning ma'naviy-axloqiy, kommunikativ va refleksiv asoslarini belgilovchi kasbiy-shaxsiy sifat sifatida talqin qilishni talab etadi. Chunki tarbiyachi-pedagog kelajak avlodning ma'naviy kamoloti, qadriyatli dunyoqarashi va madaniy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy subyekt hisoblanadi. Shu sababli uning umummadaniy kompetentligida madaniyatga oid bilimlar bilan bir qatorda qadriyatlarga sodiqlik, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik, pedagogik faoliyatda madaniy qadriyatlarni namoyon etish hamda o'zining madaniy rivojlanishini tahlil qila olish qobiliyatlari ham mujassam bo'lishi lozim.

Tadqiqot maqsadi, aksiologik yondashuvning metodologik imkoniyatlari hamda ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar sintezi asosida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikning tuzilmasi kognitiv, aksiologik, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv komponentlar birligida tavsiflandi. Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda shaxsning madaniy bilimlarni egallashi, qadriyatlarni interiorizatsiya qilishi, madaniyatlararo muloqot va kasbiy faoliyatda ularni namoyon etishi hamda o'zining madaniy rivojlanishini baholashini ta'minlaydi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikning tuzilmaviy tavsifi quyidagi jadvalda keltirilgan(1-jadvalga qarang).

1-jadval



**Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikning
mazmuniy tuzilmasi**

T/R	Komponentlar	Mazmuni
1	Kognitiv komponent	Madaniyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy meros, pedagogik etika va estetik madaniyatga oid bilimlar tizimi
2	Aksiologik komponent	Madaniy qadriyatlarni anglash, qabul qilish, qadrlash va shaxsiy e'tiqod hamda hayotiy pozitsiyaga aylantirish
3	Kommunikativ- faoliyatli komponent	Madaniyatlararo muloqot, pedagogik hamkorlik, bag'rikenglik va madaniy qadriyatlarni kasbiy faoliyatda namoyon etish
4	Refleksiv komponent	O'zining madaniy rivojlanishini baholash, madaniy qadriyatlarning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini anglash va o'z-o'zini takomillashtirishga intilish

Jadvalda keltirilgan tuzilmaviy komponentlar bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikning mazmunini yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi. Mazkur komponentlarning har biri o'ziga xos vazifalarni bajarish bilan birga, o'zaro uzviy bog'liqlikda shaxsning madaniy rivojlanishini ta'minlaydi.

1. Kognitiv komponent umummadaniy kompetentlikning bilimga asoslangan tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu komponent orqali bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda milliy va umuminsoniy madaniyat, ma'naviy meros, tarixiy-madaniy qadriyatlar, pedagogik madaniyat, etika va estetika haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi. Mazkur



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

bilimlar pedagogning madaniy hodisalarni tushunishi, ularni tahlil qilishi va kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanishi uchun zarur intellektual asos vazifasini bajaradi. Kognitiv komponentning rivojlanganligi pedagogning madaniy savodxonligi, dunyoqarash kengligi va madaniy jarayonlarga nisbatan ongli munosabatida namoyon bo'ladi.

2. Aksiologik komponent umummadaniy kompetentlikning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, shaxs tomonidan madaniy qadriyatlarning anglanishi, qabul qilinishi va ichki ehtiyojga aylantirilishini tavsiflaydi. Mazkur komponentning shakllanganligi bo'lajak tarbiyachi-pedagogning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, madaniy merosni asrab-avaylashga mas'uliyat hissini namoyon etishi hamda o'z faoliyatida ma'naviy-axloqiy tamoyillarga amal qilishida aks etadi. Aksiologik komponent ayniqsa tarbiyachi-pedagog faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tarbiyaviy ta'sirning mazmunini belgilovchi ichki motivatsion asos sifatida namoyon bo'ladi.

3. Kommunikativ-faoliyatli komponent madaniy bilim va qadriyatlarning amaliy faoliyat jarayonida ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. Ushbu komponent bo'lajak tarbiyachi-pedagogning madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishi, pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishi, bag'rikenglik va tolerantlik tamoyillariga amal qilishi hamda madaniy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur komponentning rivojlanganligi pedagogning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va kasbiy faoliyat samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

4. Refleksiv komponent esa shaxsning o'z madaniy rivojlanishini tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishga intilishini ifodalaydi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagog o'zining madaniy bilimlari, qadriyatlari va faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilish



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

orqali o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqadi. Refleksiv faoliyat pedagogning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash bilan birga, uning madaniy o'zligini anglashiga ham xizmat qiladi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikning tuzilmasi kognitiv, aksiologik, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv komponentlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi pedagogning madaniy savodxonligini, qadriyatli pozitsiyasini, muloqot madaniyatini va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini ta'minlaydi. Shu bois umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ushbu komponentlarning har biriga tizimli va maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida umummadaniy kompetentlikning mazmuniy va tuzilmaviy tavsifi aniqlashtirilib, uning kognitiv, aksiologik, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv komponentlardan tashkil topganligi asoslandi. Ushbu komponentlarning o'zaro integratsiyasi bo'lajak tarbiyachi-pedagogning madaniy savodxonligi, qadriyatli pozitsiyasi, ijtimoiy-madaniy faolligi hamda o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatining shakllanishini ta'minlashi aniqlandi.

Shuningdek, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni mazmun, shakl, metod, vosita va pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unligi asosida tashkil etilishi zarurligi asoslandi. Mazkur jarayonning samaradorligi madaniyatga muvofiqlik, aksiologik yo'naltirilganlik, insonparvarlik, subyekt-subyekt munosabatlari, integrativlik, refleksivlik hamda uzluksizlik tamoyillariga amal qilinishiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Natijada bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, tarkibiy tuzilmasi va funksional tavsifi aniqlashtirildi hamda ushbu kompetentlikni aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

metodologik poydevori yaratildi. Mazkur holat keyingi paragrafda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, mexanizmlari va amaliy texnologiyalarini tadqiq etish uchun zarur nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmon va qarorlari.
3. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi".
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalar".
5. Ishmuhammedov R. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar".
6. Zimnyaya I.A. "Klyuchevye kompetensi kak rezultat obrazovaniya".
7. Khutorskoy A.V. "Kompetentnostniy podxod v obrazovanii".
8. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar".
9. Saidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar".
10. Karimova V. "Pedagogik kompetentlik asoslari".
11. D.Olimova "Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli" 2026.